

**O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'RGATISH
MASALALARIGA DOIR**

*O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
dotsenti, f.f.n. - G.A.Axmedova*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tili ta'limi o'zga tillarda olib boriladigan rusiyzabon guruhlar kursantlarining o'zbek tilida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ayrim muammolar haqida so'z boradi. Til o'rganishdagi ayrim jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar. O'zbek tili, ta'lim, kursant, muloqot, sayyor dars, nutq, dialogik nutq.

Bugungi kunda butun dunyoda o'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Dunyodagi qadimiylar boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"¹.

Binobarin, boshqa sohalar kabi ichki ishlar organlarida ham kadrlarni (kursantlarni) o'zbek tilidagi nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish malakalarini shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish til o'rganish muhim masalalardan biridir. O'z fikrini turli uslublar va nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda bog'lanishli bayon eta olish, eshitilgan axborotni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish, og'zaki va yozma nutq madaniyatini egallash malakalarini rivojlantirish davr talabidir.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda til o'rgatishning usul va metodlariga yangicha yondashish talab qilinadi. An'anaviy usulda olib borilgan darslarda, odatda, o'qituvchi asosiy rolni bajaradi. Ta'lim oluvchi esa passiv holda darsning kuzatuvchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi va kursant o'rtasida erkin fikr almashish jarayoni sodir bo'lmaydi. Mashg'ulot chegaralangan bir xil ko'rinishga ega bo'ladi. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish talaba va o'qituvchi orasida ochiq munozarali suhbat uyuştirishga moyillik yaratadi. Bunday munozara va suhbatlar kursantlarning nutqiy faoliyatini yaxshilashga imkon tug'diradi. Kursantda tilni mukammal o'rganishga qiziqish ortadi va o'z fikrini bemalol ifodalash

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2019-yil, 21-oktyabr. PF-5850.

uchun zamin yaratiladi. Bunday darslar samarasi o'laroq, o'qitish jarayonining markaziga kursant chiqadi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgaishning asosiy vazifasi kursantlar ongiga nutq malakalarini singdirishdir. Nutqiy faoliyat og'zaki va yozma matnlardan tashkil topib, by jarayonda kursantlarning kelgusi faoliyatlarida zarur bo'ladigan so'zlashuv, ish yuritish, ilmiy (mutaxassislikka oid) matnlar o'rgatiladi. Kursantlarda malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni uzlusiz ravishda auditoriya va undan tashqari mustaqil tayyorgarlik soatlarida maxsus shug'ullanish orqali amalga oshiriladi. Nutqiy faoliyatni o'stirish ko'nikmalarining turlari nihoyatda xilma-xildir. Ularni shartli ravishda tinglab tushunish, o'qib tushunish, fikrni yozuv orqali ifodalash va so'zlashish kabilarga ajratish mumkin. Shuningdek, har bir o'qituvchi boy pedagogik mahorati va kursantlarning imkoniyatidan kelib chiqib, ta'lim berishning boshqa vositalardan ham foydalanishi mumkin. Tinglab tushunish malakalarini o'stirish o'qituvchi – kursant, kursant – kursant ko'rinishida texnik vositalar asosida amalga oshiriladi. So'zlashish malakalarini o'stirish og'zaki muloqot shaklida dars jarayonida va mustaqil tayyorgarlik soatlarida muntazam ravishda olib boriladi. O'qib tushunish malakalarini tushunish esa tizimli ravishda mutaxassislikka oid manbalarni o'rganish doirasida amalga oshiriladi. Bu turdag'i ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida qo'yilgan vazifalar gapirish va yozuv malakalarini ham o'stirishga qaratilishi lozim. Fikrni yozuvda ifodalash jarayoni ham uzlusiz ravishda olib borilib, mazkur nutq ko'nikmasini hosil qilishda fikrning yozuvdagi ahamiyati alohida o'rin egallaydi. Ta'limning dastlabki bosqichida matnni erkin ravishda ko'chirishga ahamiyat berilsa, keyinchalik kursantlar oldiga o'qib berilgan matnni yozuvda o'z so'zlar bilan ifodalash, ma'lum tayyorgarlikdan so'ng muayyan mavzuga doir erkin insho yoki hikoya yozish kabi murakkabroq vazifalar qo'yiladi. Fikrni yozuvda ifodalash malakasini oshirishda xat yozishning o'ziga xos o'rni borligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida kursantlarning o'z fikrini og'zaki bayon eta olishlariga, tuzgan matnlarda jumlalar g'aliz bo'lmasligi, ularning grammatik me'yorlarga mos kelishi, fikr bayonidagi izchillik hamda mantiqiy bog'lanishning borligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun dars va darsdan tashqari mustaqil tayyorgarlik jarayonlarida kursantlarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Og'zaki nutqni o'stirish uchun o'rganilayotgan tilda ko'proq suhbatlashish, o'zbek tilidagi badiiy asarlarni o'qish, turli hajmdagi she'rlarni yod olish kabi usullardan foydalanish samarali natija beradi. Dars jarayonida o'rganilayotgan mavzu aniq maqsad va yo'nalish asosida mutaxassislikka oid terminlar bilan bog'lab o'tilsa, zamонавиъи texnik vositalardan foydalanilsa kutilgan natijalarga tezroq erishish mumkin. Tabiiyki, har bir kursant o'zbek tilida to'g'ri va chiroyli so'zlashni istaydi. Nutqning bunday sifatlarga ega bo'lishi uchun esa, so'zlayotgan kishi shu tilni mukammal bilishi lozim. O'zlashtirilgan ko'nikmalardan me'yorida va o'z vaqtida foydalanish ham kursantdan

muyyan malaka hamda mahoratni talab etadi. Biroq bugungi kungacha o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sifatida umumta’lim maktablarida hamda yana oliy ta’limda ham uzlusiz o‘qitib kelinayotgan bo‘lsa-da, o‘zga tillar vakillarining o‘zbek tilini o‘rganishlari havas qilgulik darajada emasligi ma’lum. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmoni ona tilimizni asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minalash, ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatishga jiddiy munosabatda bo‘lishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yangilanishlar asosan o‘quvchi-talabalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Mazkur maqolada respublikamizda yashovchi o‘zga tillar vakillarining o‘zbek tilida gapirish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-metodik jihatlariga to‘xtalib o‘tildi. Ta’lim o‘zga tillarda olib boriladigan maktablar va guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishdan asosiy maqsad avvalo, ularning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lib, bunda o‘zbek tilida so‘z birikmalari, gap tuzish modellarini bilishning ahamiyati katta. Nutqiy muloqot til birliklarining o‘zaro birikishi asosida yuzaga kelar ekan, til birliklarini o‘zaro biriktirib nutqiy tuzilmalar hosil qilish uchun esa grammatik qoidalarni ham bilishi zarur. Ushbu qoidalar majmuasini o‘zlashtirmasdan turib to‘g‘ridan to‘g‘ri gap tuzish va nutqiy ko‘nikma hosil qilish mumkin emas. Buning uchun mavjud mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik, pedagogik tadqiqotlar natijalari asosida yuzaga kelgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida takomillashtirish va mundarijaviy jihatdan aynan rusiyabon guruhlar uchun xos bo‘lgan mashqlar to‘plami, aynan ichki ishlar tizimi kursantlari uchun uslubiy qo‘llanmalar, o‘quv qo‘llanmalar hamda darsliklar yaratish kerak bo‘ladi. Nutq faoliyati tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuvdan iborat bo‘lib, tilshunoslikda nutq tilning mahsuli sifatida, psixologiyada nutq jarayonining fiziologik mexanizmlari sifatida tadqiq etiladi. Og‘zaki nutqning eng muhim shakli gapirish bo‘lib, ushbu jarayon muloqotga kirishish istagi va nutq g‘oyasining yuzaga kelishi, nutqning shakllanish jarayoni, nutqning yuzaga chiqishi, amalga oshishi kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Nutq faoliyatining nutqni yuzaga keltiruvchilar ishtirokiga ko‘ra monolog, dialog va polilog turlari mavjud bo‘lib, ular orasida monologik nutq shakli muhim o‘rin tutadi. Monolog - bir shaxs tomonidan fikrlarning izchillik bilan davomli va uzviy bog‘liq holda bayon etilishidir. Qisqa muloqot shakli hisoblanuvchi dialoglardan farqli holda monologik nutqda muayyan mavzu bo‘yicha kengaytirilgan axborotdan iborat bo‘ladi, ya’ni bunda aytimoqchi bo‘lgan fikr haqida yetarli darajada keng va to‘liq ma’lumot berish ko‘zda tutiladi. Monologik so‘zlash dialogik suhbatga nisbatan psixologik va lisoniy jihatdan ancha murakkab jarayon bo‘lib, so‘zlovchidan o‘z fikrlarini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalarini talab etadi. Monologik

nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirishi, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini bog‘lanishli tarzda ravon bayon etishi, matn hech qanday uzilishlarsiz, jumlalar o‘rtasida to‘xtamlarsiz yaxlit holda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya’ni oldingi gapni aytish jarayonida keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olishidan iboratdir. Ikki shaxs nutqi dialoglarda so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, o‘zaro suhbat, savol-javoblar ifoda qilinadi. Muloqot jarayonida ikkidan ortiq shaxs ishtirok etadigan nutq turi poliloglar ham mavjud bo‘lib, ushbu nutq turlarining har biri o‘ziga xos lisoniy va psixologik xususiyatlarga ega. Dialogik nutqda vaziyat juda muhim o‘rin tutadi. Dialog va poliloglarda suhbatda ishtirok etuvchi shaxslarning nafaqat psixologik-ruhiy holati, balki suhbat kechayotgan vaziyat, nutq oqimining borishi, so‘zlovchi va tinglovchining suhbatdagi o‘rni, suhbat mavzusiga e’tibori kabilar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu nutq turlarida tinglovchining reaksiyasidan kelib chiqib, nutq davom ettirilishi yoki qisqartirilishi, hatto nutq mavzusi o‘zgartirilishi, tinglovchilarning diqqatini tortish maqsadida aynan bir gap bir necha marta takror aytilishi, yo‘naltiruvchi savollar yordamida nutq mavzusini o‘z maqsadi tomon burishi ham mumkin. Nutqning bu turida mimika, imo-ishora kabi noverbal, ya’ni ekstralikingistik vositalar katta o‘rin tutadi. Dialoglarda hatto nutqdagi uzilishlar, to‘xtamlar, takrorlar ham muayyan maqsadga xizmat qilishi mumkin. Ta’kidlash joizki, dialogik nutqda shakl va mazmun birligi amal qiladi, suhbatdoshning nima maqsadda muloqotga kirishayotganligiga qarab muloqot tartibi yuzaga keladi. Dialogik nutq o‘stirishdan ko‘zlanadigan maqsad, avvalo, o‘quvchilarni o‘zbek tilida real nutqiy muloqotga tayyorlash va nutqning ushbu shakli doirasida faol qo‘llanadigan so‘zlar va grammatik shakkarni o‘rgatishdan, ayni vaqtida ularga o‘zbekcha muloqot odobi, nutq madaniyatini singdirishdan iborat. Jonli muloqot mashg‘ulotlarini turli joylarda, turli maqsadlarda tabiiy nutq vaziyatini keltirib chiqaradigan omillar mavjud. Til muhitida sayyor darslarni har oyda o‘tkazib turish kursantlarni asta-sekinlik bilan tashqi muhit bilan muntazam muloqotga kirishib borishga, dars jarayonida egallayotgan ko‘nikmalarini rivojlantirib borish orqali malaka darajasiga yetkazishga yordam beradi. Til o‘rganishni ongli va izchil ravishda tashkil qilishning asosiy omillaridan biri dars jarayonida, auditoriyada ham imkon boricha tabiiy nutqiy vaziyatni tashkil qilishdir. Tabiiy nutqiy vaziyatda o‘zlashtirilayotgan til materiali kursantlarga tabiiy ravishda singib boradi. Jonli muloqot orqali tabiiy nutq vaziyatini yaratish natijasida ijtimoiy yo‘naltirilgan ta’limga erishiladi, ya’ni o‘quvchilarda ma’lum ijtimoiy vaziyatda o‘zaro muloqotga kirishish ehtiyojini qondirish istagi paydo bo‘ladi. Ba’zan nutqiy vaziyatni pantomimo, rollo o‘yinlar tarzida hosil qilish ham mumkin. Ikkinci tilni o‘rganishda dars jarayonida maxsus tashkil etiladigan shartli nutqiy vaziyatlar alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi suhbat vaziyatini, kommunikantlarning o‘zaro savol-javoblarini yozma holda tayyorlab kelishi,

talabalarga ularni tarqatma material sifatida berib, oldindan tanishib chiqishi va yoddan aytishi uchun imkon berishi kerak. Muammolarning yechimi sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili mashg‘ulotlarida jonli muloqotlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratish, muzeylar, teatrler, kutubxonalarga va boshqa maskanlarga uyushtiriladigan sayyor darslar orqali kursantlarni voqeа-hodisaning tabiiy shart-sharoitiga olib kirish, suhbatlar uyushtirishga ko‘proq jalb qilish, dialogik nutqni polilogik muloqotga aylantirish orqali tabiiy nutqiy vaziyatlarni yaratish kabi usullardan samarali foydalanish kabi jihatlarga e’tibor berish lozim.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish jarayonida natijali samaradorlikka erishish uchun, eng avvalo, o‘qish va yozish, o‘qib tushunish, tinglab tushunish ko‘nikmalariga asoslangan mukammal yangi avlod darsliklarini yaratish lozim. Darslarning nafaqat auditoriyada, balki mavzuga aloqador manzillarga sayyor mashg‘ulotlar tarzida o‘tkazilishi kursantlar og‘zaki va yozma nutqining rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Mustaqil tayyorgarlik soatlarida o‘zbek tilidagi badiiy asarlar tahliliga e’tibor qaratilishi, mashg‘ulotlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalangan holda olib borilishi kursantlarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Ona tilimiz rivojiga befarq bo‘lmaslik, uning davlat tili sifatidagi nufuzini yanada ko‘tarish mamlakat fuqarosi sifatida har birimizning burchimizdir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev R. A. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. — Toshkent: O‘zPFTI, 2015. — 160 b.
2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. — Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. — 185 b.
3. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitishda uzlusizlikni ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). — Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. — 238 b.
4. Axmedova G.A. “Methodological and scientific method of teaching mother tongue basics” “Academia” jurnalining 2022-yil dekabrdagi 3-soni.
5. Axmedova G.A. “Til o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish” “Ta’limda tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari: muammo, tahlil va yutuqlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2022-yil 2-dekabr.